

Savollar (javoblar)

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar qaysilar?

(4-modda. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.)

2. Davlat ta'lim standartlari nima? (davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui)

3. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida keltirilgan ta'lim turlari nechta va ular qaysilar? (Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.)

4. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib ular qaysi bosqichlarni qamrab oladi? (9-modda. Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar.)

5. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning nechanchi moddasida ta'lim olish shakllari berilgan, ular qaysilar? (15-modda. Ta'lim olish shakllari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.)

6. Dual ta'lim nima va unda ta'lim oluvchilar qanday tartibda bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishadi? (17-modda. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi).

7. Masofaviy ta'lim nima? Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi? (16-modda. Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.)

8. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (Kattalar ta'limi yoki androgogik ta'lim) nima va u kimlar uchun? (19-modda. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.)

9. Inklyuziv ta'lim qanday muassasada tashkil etiladi? (20-modda. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda **barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida** ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi).

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaroriga muvofiq maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini kasbiy ehtiyojlari va malaka toifasidan kelib chiqib tabaqalashgan ta'lim dasturlari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishning qanday tizimi yo'lga qo'yilishi belgilangan? (vertikal tizim: vazirlik - malaka oshirish muassasasi - ta'lim tashkiloti)

11. PISA nechi yoshdagi o'quvchilar ishtirok eta olishadi? (15 yoshli, aniqrog'i 15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan o'quvchilar)

12. Hozirgi kunda ta'lim tizimimizda qanday model(lar) asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari shakllantirishda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish mumkin? (4K: kritik, kreativ, kollaboratsiya va kommunikativlik, 5E modeli: Engage (Jalb qilish), Explore (Tadqiq qilish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Ishlab chiqish), Evaluate (Baholash))

13. PISA 2025 tadqiqodlarida qaysi fan sofasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan? (Tabiiy-ilmiiy savodxonlik)

14. O'quvchilar bilimni baholashda qanday xalqaro tadqiqodlarni bilasiz? (PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA)

15. TALIS xalqaro baholash dasturi qanday maqsadda o'tkaziladi? (rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish)

16. Qanday raqamli didaktik platforma yoki vositalarni bilasiz? Ulardan dars o‘tishda foydalanganmisiz? Sizningcha bu o‘quvchilarning qanday ko‘nikmalarini rivojlantiradi? (Kahoot, iSpring suite, learningapps.org, jeopardy.com, joyteka.com, wordwall.net, capilot, phet, nearpod, FigJam, Padlet, test pad va hakozi. Bular o‘quvchilarda raqamli dunyoda o‘rganish, AKT savodxonlik darajasini oshirishda, ma’lumotlarni raqamli formatda foydalanish va qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi)

17. O‘zbekistonning TIMSS xalqaro baholash dasturidagi ilk ishtiroki natijalari qanday bo‘ldi? (8-sinf o‘quvchilari natijalari: matematik savodxonlik bo‘yicha 421 ball to‘plagan bo‘lib, qatnashuvchi 44 ta davlatlar orasida 32-o‘rin, tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha qatnashgan 44 ta davlat orasidan 396 ball bilan 39-o‘rinni egalladi. 4-sinf o‘quvchilari natijalari: tabiiy fanlar (Science) savodxonligi bo‘yicha: 412 ball to‘plangan bo‘lib ishtirokchi 58 ta davlatdan 54-o‘rin, matematik savodxonlik bo‘yicha: 58 ta davlat ichida 443 ball bilan 50-o‘rinni egalladi.)

18. O‘quvchilarning “Raqamli dunyoda o‘rganish” domeni qaysi xalqaro baholash dasturida ilk bora qo‘llaniladi? (PISA-2025 valqaro tadqiqotida)

19. Sun‘iy intellekt nima? Uni ta’limda qo‘llash bo‘yicha yondashuvlaringiz qanday? (Sun‘iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. “... ChatGPT kabi sun‘iy intellekt mahsulotlari – ilmiy maqolalar, kurs ishlari yoki maktab o‘quvchisining ijodiy ishlarini ham yozib bera olishi, ularning ilmiy ahamiyatini pasaytirib yuborgani haqida aytilmoqda. Texnologiya davri boshlanayotgan ekan, yoshlarimiz bundan foydalanishiga ruxsat berishimiz, ulardagi sun‘iy intellektdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishimiz kerak. Faqat bilimlarni imtihon qilayotganda buni nazoratga olish kerak deb hisoblayman. Ulardan telefonni olib qo‘yib bo‘lmaydi, faqat to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Chunki ko‘chiradigan o‘quvchilar bungacha ham internetdagi qidiruv tizimlaridan ko‘chirib yozavergan. Ya’ni imkoniyatlardan o‘zining bilimini oshirish, ishini yengillatish uchun foydalanadimi yoki ko‘chirish uchun – hammasi o‘quvchining o‘ziga bog‘liq. Bu yerda taqiqlar ish bermaydi...”. Manbaa: Kun.uz. Raqamli texnologiyalar vazirligi Sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Aziz Atabekov intervyusidan)

20. Blum taksonomiyasi bosqichlari qaysilar? (Bilish (Knowledge), Tushunish (Comprehension), Qo‘llash (Application), Tahlil qilish (Analysis), Sintetiz qilish (Synthesis), Baholash (Evaluation). Blum taksonomiyasi — bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning bilimlarini baholash uchun ishlatiladigan usul)

21. Yacheykada ### belgi nimani bildiradi? (rakamning yacheykaga sig‘maganligini)

22. Qaysi brauzer web-sahifalar HTML kodini o‘zgartirish imkonini beradi (Mozilla Firefox, Internet Explorer, Opera, Safari)? (opera)

23. iSpring Suite – bu ... (Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar, interaktiv testlar va elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlar to‘plamidir)

24. Qaysi tarmoq uchun modem ishlatilmaydi? (lokal)

25. Kompyuter qurilmalariga xizmat ko‘rsatuvchi darsturlar qanday nomlanadi? (drayverlar)

26. Bulutli texnologiya asosida ishlovchi onlayn so‘rovnoma va test tuzuvchi dasturlarni bilasizmi? Ular qaysilar? (Google form, Microsoft form va boshqalar)

27. Power Pointda joriy slayddan namoyich etishda qaysi klavishlar orqali amalga oshiriladi? (Shift+F5)

28. Kompyuter grafikasi qanday turlarga bo‘linadi? (rastrli, vektorli va fraktal)
29. Windowsda qaysi brauzer avtomatik o‘rnatilgan bo‘ladi? (Internet Explorer)
30. D1 katakka $=\text{Max}((\text{SUM}(A1:B1);56))$ formulasi kiritilgan. $A1=21$, $B1=32$ bo‘lsa, D1 katakda qanday natija paydo bo‘ladi? (56)
31. $=\text{SUMM}(A1:B4)$ formulada nechta katakdagi qiymatlar yig‘indisi hisoblanmoqda? (8 ta)
32. Bluetooth va Wi-Fi tarmog‘i asosiy farqi nimada? (Bluetooth(qisqa masofaga kichik hajimli ma’lumotlarni simsiz uzatish) va Wi-Fi(katta hajimli ma’lumotlarni simsiz uzatish))
33. DVD R va DVD RW qanday farqi bor? (DVD R-faqat o‘qish uchun DVD RW o‘qish va yozish uchun)
34. && - pythonda bu belgi nimani bildiradi? (oldingi va keying shartning ikkalasi ham to‘g‘ri bo‘lsa, u to‘g‘ri, agar ulardan biri xato bo‘lsa, unda u xato bo‘ladi)
35. Pythonda $\text{print}(2^{**}2)$ hamda $\text{print}(\text{pow}(2,2))$ kodlari yozilganda ekranda qanday naticha hosil boladi? (javob: $\frac{4}{4}$)
36. Algoritm turlari nechta va ular qaysilar? (3 ta: chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi)
37. Spayt nima? (sprayt – asraguvchi ruh, Farishta. Scratch dasturi stilida yaratilgan obyekt ya’ni qahramon)
38. .sb , .sb2 , .sb3 bu lar qaysi dastur fayl kengaytmalari? (Scratch)
39. Scratch – bu ... ? (Scratch – bu kichik maktab o‘quvchilari o‘zlarining hikoya, multfilm, o‘yin, taqdimot va boshqa loyihalarni yaratishlari uchun mo‘jallangan dasturlash muhitidir).
40. Dasturlash bo‘yicha onlayn olimpiada va musobaqalar tashkil etuvchi platforma? (robocontest.uz va contest.yandex.com)
41. Xavfsizlik devori (Firewall) nima? (Tarmoqni tashqi hujumlardan himoya qilish uchun ishlatiladigan tizim)
42. Kriptografiya nima? (Ma’lumotlarni maxfiy va xavfsiz tarzda uzatish uchun kodlash usuli)
43. Sun‘iy yo‘ldoshlar qanday maqsadlar uchun ishlatiladi? (Xalqaro aloqa, meteorologiya, harbiy maqsadlar)
44. TeamViewer dasturining asosiy vazifasi nima? (Masofadan turib ishlash va ekranni boshqarish)
45. Prototiplash nima? (Dasturiy ta’minotning dastlabki shaklini yaratish)
46. Videokonferensiya nima? (Bir yoki bir nechta shaxslar o‘rtasida internet orqali real vaqtda video va audio aloqasini tashkil etish)
47. Ta’limda “e-learning” nima? (Onlayn ta’lim platformalari orqali o‘qish va o‘rganish)
48. Ta’limda interaktiv taxta qanday ishlatiladi? (O‘quv materiallarini ko‘rsatish, savollar berish va o‘quvchilar bilan muloqot qilish)
49. Ta’limda raqamli texnologiyalar qanday o‘qish metodlarini qo‘llab-quvvatlaydi? (Interaktiv o‘qish, onlayn kurslar, multimedia vositalari yordamida o‘rganish)
50. Ishlab chiqarishda “IoT” (Internet of Things) texnologiyasi qanday ishlatiladi? (Qurilmalar va tizimlar o‘rtasida avtomatik aloqalarni yaratish va ma’lumotlarni yig‘ish)